

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## XORAZM ADABIY MUHITIDA AN'ANA VA ORGINALLIK

*Sohiba Umarova**PhD, dotsent**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**o'zbek tili va adabiyoti universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Xorazm adabiy maktabi, adabiyot, devon, g'azal, tatabbu', tazmin, qofiya, radif, Navoiy, Sultoniy, tahlil.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhiti va unga Alisher Navoiy ijodining ta'siri, Navoiy g'azallariga tazmin bog'lagan ijodkorlar Ogahiy, Ahmad Tabibiy hamda ularga ergashgan holda shahzoda shoirlardan Sayyid Nosir to'ra Sultoniy tomonidan yozilgan tatabbu'ning yaratilishi, tatabbu' g'azalning an'analar asosida o'ziga xos tarzda yozilgani haqida so'z yuritiladi. Sayyid Nosir to'ra Sultoniy Muhammad Rahimxon II Feruzning nabirasi bo'ladi, u madrasada ta'lim olgan, she'r ilmini ustozlaridan o'rgangan. Sayyid Nosir to'ra Sultoniy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Sultoniy o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan. Sultoniy haqida Xorazm adabiy muhiti haqidagi tarixiy manbalarda ma'lumotlar beriladi. Sahzoda shoirning lirik she'rlari "Devoniy Sultoniy"ida jamlangan. O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida "Devoniy Sultoniy" AP-7095 raqami bilan saqlanadi. Devon uchun maxsus debocha yozilmagan. Kolofoni bor. Bundan tashqari Sultoniy g'azallari majmua, bayozlarda keltirilgan. Sultoniy she'rlari mumtoz an'analariga hahohang tarzda yaratilgan. "Devoniy Sultoniy"da 300 dan ortiq g'azallar bor, g'azallari tatabbu' tarzda ham bitilgan. Taxmis muxammaslarining ko'pi Alisher Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz kabi shoirlarning g'azallariga yozilgan. "Devoniy Sultoniy"da jami 12 xil janrdagi she'rlar berilgan. Sultoniy Navoiyning "Sahar xovar shahikim charx uzra xayli hasham chekdi, Shioyi xat bila ko'xsor uza oltun alam chekti" bayti bilan boshlanuvchi g'azalidan ilhomlangan, Navoiyning badiiy tasvir vositalari va usullaridan unumli foydalangan holda o'z qarashlari va g'oyasini ifodalash uchun original tashbeh, istioraviy obrazlar yarata olgan. Sultoniy an'anaviy obraz va iboralarga ijodiy yondashgan va o'z davri darajasida ularni original talqin qilgan.

## TRADITION AND ORIGINALITY IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KHORAZM

*Sohiba Umarova**PhD, associate professor**Tashkent State University of**Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi**Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** Khorezm literary school, literature, divan, ghazal, tatabbu', tazmin, rhyme, radif, Navoi, Sultani, analysis.

**Abstract:** In this article, the literary environment of Khorezm and the influence of Alisher Navoi's work on it, Ogahi, and Ahmad Tabibi who to Navoi's make tazmin, the creation of the tatabbu` written by the poets Sayid Nasir Tora Sultani and so on. Also, there are several explanation about creating the tatabbu' ghazal in a unique way based on traditions. Sayyid Nasir will be the grandson of Muhammad Rahim Khan II Feruz, he was educated at a madrasa and learned the science of poetry from his teachers. Sayyid nasir wrote poems under the pseudonym of Sultani. Sultani wrote in Uzbek and Persian-tajik languages. Information about Sultani is given in the historical sources of khorezm literary environment. Lyrical poems of shahzada poet are collected in "Devani Sultani". "Devony Sultani" is stored in the manuscript fund of the institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the republic of Uzbekistan under the number AR\_7095. No special prelude was written for Devon. There is a colophon. In addition, Sultani's ghazals are presented in collections and bayazes. Sultani's poems were created in accordance with classical traditions. There are more than 300 ghazals in "Devani Sultani", the ghazals are also written in tatabbu style. Most of takhmis mukhammas were written in the ghazals of poets such as Alisher Navoi, Fuzuli, Munis, Ogahi, Feruz. A total of 12 different genres of poems are given in "Devani Sultani". Sultani wrote following ghazal due to he was inspired by Navoi`s ghazals: "Sahar xovar shahikim charx uzra xayli hasham chekdi, Shioyi xat bila ko'xsor uza oltun alam chekti" He able to using Navoi's artistic means and methods to express his views and ideas to create original make tashbeh and metaphorical images. Sultani had a creative approach to traditional images and expressions and interpreted them in an original way at the level of his time.

## ТРАДИЦИЯ И САМООБРАЗИЕ В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ ХОРАЗМА

*Сохиба Умарова**кандидат медицинских наук, доцент**Ташкентский государственный университет**узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Хорезмская литературная школа, литература, диван, газель, татаббу, тазмин, рифма, радиф, Навои, Султани, анализ.

**Аннотация:** В данной статье литературная среда Хорезма и влияние на нее творчества Алишера Навои, создание татаббу, написанного принц поэт Саййид Насир Тора Султани, авторами, отдавшими дань уважения газелями Навои, Огахи, Ахмад Табиби и вслед за ними, говорится, что

газель татаббу была написана уникальным способом, основанным на традициях.

Сайид Насир будет внуком Мухаммад Рахим хана II Феруза, он получил образование в медресе и научился науке поэзии у своих учителей. Сайид Насир Тора писал стихи под псевдонимом Султани. Султани писал на узбекском и персидско-таджикском языках. Сведения о Султани приводятся в исторических источниках Хорезмской литературной среды. Лирических стихи поэта собраны в «Девани Султани». «Девоны Султани» хранится в рукописном Фонде Института востоковедения имени Абу райхан Беруни Республики Узбекистан под номером AP-7095. Специальной девоча для Девана написано не было. Естой колофон. Кроме того, газели Султани представлены в сборниках и байазах. Стихи Султани созданы в соответствии с классическими традициями. В «Девони Султани» более 300 газелей, газели также написаны в стиле татаббу. Большинство тахмис мухаммасы написаны в газелях таких поэтов, как Алишер Навои, Физули, Мунис, Огахи, Феруз.

Всего в «Дивани Султани» дано 12 стихотворений разного жанра. Султани «Сахар ховар шаҳиким чарх узра хайли хашам чекди, Шиойи хат била кўхсор уза олтун алам чекти» вдохновленный газелью, начинающейся со стиха, он смог создать оригинальные аллегорические и метафорические образы для выражения своих взглядов и идей используя художественные средства и методы Навои. Султани творчески подходил к традиционным образам и выражениям и интерпретировал их оригинально на уровне своего времени.

---

## KIRISH

Sharq mumtoz adabiyoti an'analar doirasida izdoshlik, ijodiy ergashish, payravlik tarzda kengayib borib, original asar darajasiga yetadi. Adabiyotshunoslikda biron bir shoirning asariga tatabbu' bog'lash, taqlid etish orqali shu bahr, radif yoki qofiyadagi she'rni qayta yaratish salaflar yoki zamondosh shoirlar bilan ijodiy bellashuv, musobaqalashuv bilan birga ulardan o'rganish an'anasi sifatida baholanadi. Albatta, asarga tatabbu' yoki taxmis bog'lagan shoir tanlagan mavzu, vazn va qofiya doirasida yangi fikr ayta olishi, badiiy tasvir vositalaridan o'ziga xos tarzda o'rinli ishlatish imkoniyatiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Sharq adabiyoti tarixida devonchilik yuqori darajada rivoj topgan. Shoirlar o'zlarining g'azal, ruboiy, tarkiband, tarje'band, mustazod, muxammas, qasida, qit'a, fard kabi janrlarda yozilgan she'rlarini jamlab, devon shakliga keltirishgan. Devonlarga maxsus debocha ham yozilgan. Devonlarga yozilgan debocha shoir hayoti va ijodini o'rganishda muhim adabiy manba bo'lib xizmat qiladi. Devonlar tarkibidagi she'rlar odobu tasnifga ko'ra joylashtiriladi. Devon avvalida hamd, so'ngra na't g'azallar keltirilishi sharqona uslubga xos kompozitsion qurilish hisoblanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazmda an'analarni davom ettirish, ustozlarga munosib izdoshlik bo'lish hamda yangilikka intilish maqsadida yurtdagi barca ijodkorlarni jalb etgan yirik adabiy-madaniy muhit vujudga keldi. Xivada Muhammad Rahimxon II Feruz zamonida ko'plab shoirlar ijod etishgan va ularning devonlari tartib berilgan. Shoir va tarixchi Bayoniy Xorazm adabiy muhitida

devonchilik an'anasining rivoj olganiga xonning o'zi rahnamolik qilganligini yozadi. Xivada Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874), Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872-1951), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug'anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938) kabi yirik shoirlar yashab ijod etishgan. Hojimurod Laffasiy (1880-1945) "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" asarida xorazmlik 51 shoir haqida ma'lumot beradi. Bayoniy "Shajarayi. Xorazmshohiy" asarida shoirlar haqida shunday keltiradi: "Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusufhoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiyar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar"<sup>1</sup>. Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II Feruz qalam ahlini tazkira tuzish, majmua yozish, tarjima etish, bayozlar tuzish, devonlar tartib berishga rag'batlantiradi, hatto bu jarayonga qarindoshlari, shahzodalar va saroydagi ko'plab mansabdor kishilarni ham jalb etib, muntazam ijodiy kechalar tashkil etadi. Albatta, shoh va shoir qoshidagi bunday anjumanlar shunchaki she'rxonlik bilan kifoyalanmay, balki shorlarning ijod mahsuli o'qib, eshittirilgandan so'ng ular yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan, xususan, xon oila a'zolari tomonidan aytilgan har bir bayt, undagi mazmun, badiiyat va vazn uyg'unligiga yig'ilganlar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Shubhasiz, bunday vaziyatlarda Feruzning fikr-mulohazalari birinchi o'rinda turgan va xon anjumanlardan tashqari vaqtlarda ham o'z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, shahzoda shoirlarning tarbiyasi, ta'lim olishi uchun ustozlar tayinlagan, ijodkorlarning taxallus tanlashi, she'rlarini devon holiga keltirish va ko'chirilishiga rahnamolik qilgan. Bu haqida Laffasiyning "Tazkirai shuaro", Bayoniyning "Haft shuaro", Bobojon Tarrohning "Xorazm navozandalari" kabi asarlarda ko'plab ma'lumotlar beriladi. Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich 1908 yili Xivaga qilgan ilmiy ekspeditsiyasi haqida yozgan tadqiqot ishlaridan birida shoir Tabibiy va uning "Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy" tazkirasiga e'tibor qaratarkan, asarda Feruz oilasi vakillari borligini ham yozadi. "Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy"ga kiritilgan ijodkorlarning 10 ga yaqini xonzodalar bo'lib, ularning g'azallari tazkiraning asosiy qismida beriladi. Feruz topshirig'i bilan shahzoda shoirlar she'rlaridan majmualar ham tuzilgan. Shulardan biri "Haft shuaro" deb nomlanadi. "Haft shuaro"ga xonning buyrug'i bilan Bayoniy tartib bergan va unda Murodiy, Sultoniy, Sa'diy, Oqil, Farrux, Sodiq va Bayoniy o'zining ijodidan namunalar kiritadi. XX asr xorazm adabiy muhitida "Haft shuaro" majmuasi alohida o'rin tutadi. U o'sha davrdagi madaniy ko'tarilish, ma'rifat tarqatish va kitobxonlikni kengaytirish zaruriyati tufayli san'atsevar shoh Feruz topshirig'i va rahnomoligida maydonga keldi hamda shahzoda shoirlar she'rlarini qamrab oldi. U an'anaviy bayoz va to'plamlardan farqli o'laroq, sulolaviy tamoyil bo'yicha tuzilib, asosan majmua, qisman tazkira xususiyatlarini mujassamlashtirgan manbadir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O'tar, Tabibiy, Rojjiy, Rog'ib, Komyob, Mutrib, Muhammad Rasul Mirzo kabi namoyandalari hayoti va ijodini tadqiq etish yuzasidan adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ular bilan zamondosh, bir adabiy muhitda faoliyat olib borgan Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad, Murodiy, Sodiq, Farrux, Oqil kabi xon oilasidan yetishib chiqqan ijodkorlar devonlari qo'lyozmalari hanuzgacha o'rganilmagan. Vaholanki, bugungi kunda shahzoda shoirlarning devonlari O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida, Xorazm Ichan qal'a qo'lyozma fondida va Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik fondida saqlanmoqda. Xorazm devonchilik an'anasini o'rganish, shahzoda

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. O'zFA ShI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 9590. 12-sahifa.

shoirlar tomonidan tartib berilgan devonlar qo'lyozmalarining o'zaro matniy-qiyosiy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti tarixini to'ldiradi hamda bu davrning tarixiy, madaniy, adabiy muhitini o'rganadigan tadqiqotlar uchun muhim manba bo'ladi.

### TADQIQOTNING USULLARI

Tatabbu' - [ا. تتبع] – biror narsaning ketidan tushish, izidan borib tekshirish, ta'qib qilish, o'rganish, tadqiqot, tahlil etish kabi maqsadlarni qamrab olar ekan, tatabbu' she'riyatning istalgan janri yoki shakli asosida: farddan dostongacha yozilishi mumkin bo'lgan she'riy shakl ekanligi bilan boshqa she'rlardan ajraladi. Mumtoz she'riyatimizda, xususan, Alisher Navoiy ijodida tatabbu' asosan g'azal, qasida va doston shaklida bitilgan. Navoiyning lirik tatabbu'lari "Devoni Foni" tarkibidan o'rin olgan bo'lib, ular ulug' shoirning o'z salaflari va ustozlariga yuksak ehtiromi mahsuli sifatida qaraladi. "Devoni Foni"dagi g'azallarining 300dan ortig'i aynan tatabbu' asosida yaratilgan bo'lib, Hofiz Sheroziy g'azallariga bog'langan tatabbu'larning o'zi 200dan ortiq ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan tazmin va tatabbu'lar o'zbek adabiyotida ko'plab yaratilgan.

B.Fayzulloev shunday yozadi: "XIX asming birinchi yarmida tatabbu'navislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo'qonda bo'lib, masnu' tatabbu'navislik ham u yerda kuchli edi. Zero, unga Qo'qon xonlari, shoirlar Amiriy, undan so'ng o'g'li Xon bevosita rahbarlik qilishardi. Garchi adabiy jarayonni boshqarishda malikush-shuaro darajasiga ko'tarilgan shoirlardan avval, Ado, so'ng Fazliy ham faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar-da, lekin asosiy rahnamo shoh shoirlarning o'zlari edi. Shu sababli tatabbu'navislik ham asosan ularning va, shuningdek, malikush-shurolarning she'rlariga javobiya tarzida bo'ldi"<sup>2</sup>.

Shu davr, ya'ni XIX oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida ham tatabbu' yozish an'anasi kengaydi. Navoiy g'azallariga tazmin yoki tatabbu' bog'lash Ogahiy, Feruz, Munis, Ahmad Tabibiy hamda ularga ergashgan holda shahzoda shoirlar Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asadlar ijodida ham ko'plab uchraydi. Jumladan, "Devoni Sultoniy"da keltirilgan 339 raqamli g'azal Alisher Navoiyning "Sahar xovar shahikim charx uzra xayli hasham chekdi, Shioyi xat bila ko'xsor uza oltun alam chekti" bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga tatabbu' tarzda yaratilgan. Navoiyning (1989) ushbu g'azali "Xazoyin ul-ma'oniy"ning "Navodir ush-shabob" devoni tarkibida 606-g'azal bo'lib kelgan<sup>3</sup>. Navoiy ushbu g'azalini Hofiz Sheroziyning "Sahar chun xusravi xovar alam bar ko'hsoron zad..." misrasi bilan boshlanadigan g'azaliga hamohang tarzda ijodiy davom ettirgan<sup>4</sup>. Adabiyotshunos Yo.Is'hoqov bu holatni shunday izohlaydi: "Navoiyning Hofiz g'azaliga ijodiy munosabati ikki xil ko'rinishda yuzaga kelgan. Birinchi bosqich – bu tatabbu' tarzda ko'rinadi. Navoiy Hofizning mazkur g'azaliga fors tilida tatabbu qiladi" va ikkinchi bosqichda "Hofizdagi istioraviy poetik tasvir Navoiy uchun turtki bo'lgan. Navoiy vazn va radifni ("chekti" – "zad"ning o'zbekchasi, lekin mazmunan keng) saqlagan holda, ham mazmunan, ham kompozitsiya jihatidan o'ziga xos bo'lgan yangi tipdagi g'azal yaratgan"<sup>5</sup>.

### NATIJALAR

E'tibor bersak, "Navodir ush-shabob"ning (1959) dastlabki nashrlarida "Sahar xovar shahikim charx uzra xayli hasham chekdi..." misrasi bilan boshlangan shoir g'azali o'n bayt etib beriladi<sup>6</sup>. Yo.Is'hoqov ham g'azalning 10 baytli shaklini tahlilga tortgan. Aslida esa Hofizning (1995) "Sahar chun xusravi Xovar alam bar ko'hsoron zad..." misrasi bilan boshlangan g'azali 13 baytdan iborat. Navoiy

<sup>2</sup> Fayзуллоев Б. Ўзбек шеърлятида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида): филол.фан.ном.дисс. – Т.,2002. – Б. 17-18.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. MAT. 4-tom. – Т.: Fan. 1989. – В.351-352.

<sup>4</sup> Qarang: Devoni Xoja Shamsiddin Muhammad Hofizi Sheroziy. –Tehron, Nashri jumhuriy, 1374/1995. – S. 142-143.

<sup>5</sup> Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси (Хазойин ул-маоний асосида). – Т.: "Фан", 1983. – Б. 116.

<sup>6</sup> Алишер Навоий. Хазойинул маоний. Наводир уш-шабоб. Илмий танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон. –Т.: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1959. – Б.610.

tatabbu'si ham 13 baytli bo'lib, F.Sulaymonova tahriri ostida nashrga tayorlangan Alisher Navoiyning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" (1989)da mazkur noqislik bartaraf etilgan<sup>7</sup> va g'azal 13 bayt shaklida berilgan, keyingi nashrlarda (2011) ham bu kamchilik tuzatilgan<sup>8</sup>.

Yuqorida aytilganidek, Alisher Navoiyning "Sahar xovar shahikim charx uzra xayli hasham chekdi, Shioyi xat bila ko'xsor uza oltun alam chekti" bayti bilan boshlanuvchi ushbu g'azali Xorazm adabiy muhitidagi shoirlar ijodiga katta ta'sir qilgan. Jumladan, Ogahiy devonidan Navoiy g'azaliga bitilgan ushbu muxammas:

Shahi zarrin kulah chun subh dam tiyg'i dudam chekti,  
Siihi nur olmoqqa jahonni yak qalam chekti,  
Adam mulkiga zulmat lashkari turmay qadam chekti,  
Sahar xovar shahi charx uzrakim xayli hasham chekti,  
Shioi xat bila ko'hsor uza oltun alam chekti<sup>9</sup> - tarzda yozilgan.

Bundan tashqari Navoiyning ushbu g'azaliga Ahmad Tabibiy (1903) tomonidan yozilgan muxammas mazmun o'ziga xos yaratilgan:

Shahi anjum hukumat tig'ini chun subhidam chekdi,  
Shafaqdin arsai olam aro gulgun hasham chekdi,  
Ziëvu nur xaylini arabdin to'ajam chekdi,  
Sahar xovar shahikim charx uza xayli hasham chekdi,  
Shuo'i xatt bila ko'hsor uza oltun alam chekdi<sup>10</sup>.

Ma'lum bo'ladiki, Ogahiy, Ahmad Tabibiylar Navoiyning 13 baytli g'azali bilan tanish bo'lishgan.

## MUHOKAMA

"Devoni Sultoniy"(1905)dagi Sultoniy tatabbu'si 7 baytdan iborat. Tazmin muxammaslar ustozlarga izdoshlik qilish bilan birga, ba'zi shoir lirikasini o'rganishda ba'zan masalalarga oydinlik ham kiritadi. Xususan, biz yuqorida so'z yuritaëtgan Navoiy g'azali baytlari miqtori bo'yicha ham shunday xolat sodir bo'lgan. Sultoniy ko'rgan manbada Navoiy g'azali 7 ëki 8 bayt bo'lgan. Shuning uchun Sultoniy g'azali shunga asosan quyidagicha yaratilgan:

Shahi anjum kecha hindusig'a tig'i dudam chekti,  
Bo'lub mag'lub olar mulki adam sori qadam chekti.  
Qazo farroshi zulmat gardidin olamni pok aylab,  
Jahon ahlig'a nuri mehrdin xoni karam chekti.  
Muazzinlar masojidlarda gulbongi samad urdi,  
Nasorolar choldi noqusin, barahman, ë sanam, chekti.  
Azal munshiysi gardun safhasi uzra berib ziyat,  
Onga "Val-layl", gah "Vash-shams" tafsirin aqam chekti.  
Ne xushdur ul kishikim bu baqosiz umrni anglab,  
Mayi gulgunni o'z dildori birla dam-badam chekti.  
Qayu oshiqki bir gul ishqida zoru hazin o'lsa,  
Firoqida oning yig'lab necha jomi alam chekti.  
Muyassar bo'lsa Sultoniyg'a ul gul vasli bir soat,  
Tuzub bir turfa majlis ëri birla jomi jam chekti<sup>11</sup>.

<sup>7</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабооб. МАТ. 4-том. – Т.: Фан. 1989. – Б.351-352.

<sup>8</sup> Навоий, Алишер. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабооб /Х.Сулаймон нашри асосида матнни луғат ва изоҳлар билан қайта нашрга тайёрловчи О.Давлатов. –Т.: "Тамaddon", 2011. – Б. 609-610.

<sup>9</sup> Муҳаммадризо мироб Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. II жилд. Девон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 221.

<sup>10</sup> Qarang: Ahmad Tabibiy. Devon. 678 raqamli qo'lyozma. O'zFA Sharqshunoslik instituti. Inv. № 678. 124a (246)-varaq. 5-tartib raqami bilan "Muxammasi Tabibiy bar g'azali Navoiy"da keltirilgan.

Sultoniy Navoiy g'azalining bahri (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun), radifi (chekti) va qofiyasidagi "sanam", "alam"(ikkinchi ma'nosi bilan), "jam" so'zlarini saqlagan, "dudam", "karam", "aqam", "dam-badam" qofiyalarini yangi kontekstda yaratgan.

Navoiy g'azali matla'sida Quësh o'zining askarlari bilan ko'k ustiga yurish qilib, tog'lar cho'qqisiga oltin bayrog'ini tikdi, degan istioraviy tabiat tasviri berilgan bo'lsa, Sultoniy g'azalining 1-baytida yulduzlar shohi Quësh kecha qorong'uligiga ikki damli tig'i bilan yuzlandi, uning chiqishidan qorong'ulik yo'qlikka qadam chekdi, deyiladi.

Navoiy g'azalining 2-baytida: Qazo farroshi chekti subhning simin supurgusin, Muzahhab parlarin andoqki tovusi haram chekti - ya'ni, qazo farroshi oppoq tongning kumush supurgisi bo'ldi, mavjudotlarning turli xil tovlanishi tovus patlaridek jilolandi, degan tasvir berilsa, Sultoniy g'azalining 2-baytida Navoiyning istioraviy tasviri "qazo farroshi"ni saqlagan holda, tong otishi olamni zulmat gardidan tozaladi, jahon ahlig'a quësh nuridan xoni karam ko'rsatdi, deydi.

Endi, bizningcha, Sultoniy g'azalidagi 3-bayt aslida 4-bayt bo'lishi kerak. Chunki Navoiy g'azali 3-bayti: Kitoba sun' kilki "Surai vash-Shams" tafsirin, Falak toqi havohisida zarhaldin raqam chekti – ya'ni, Yaratuvchining Kitobidagi "Vash-Shams" surasi tafsiri osmon gumbaziga bitildi, degan tasvir Sultoniy g'azalidagi 4-bayt mazmuni bilan hamohang tushadi. Sultoniy g'azalida Azal munshisi olamga ziynat etib, "Val-layl", goh "Vash-shams" tafsirini aqam qildi, deyiladi. Sultoniy Navoiydagi "Vash-shams" bilan birga, "Val-layl" suralarini goh, goh deb oladi. Ammo bu bayt Sultoniy g'azalida 4 bayt bo'lib e'zilgan.

Navoiy g'azalining 4-baytida: Muazzin ka'ba toqi uzra gulbongi samad urdi, barahman dayr ayvonida ohangi sanam chekti, ya'ni muazzinning Ka'ba gumbazi ustida aytgan yoqimli sadosi yangradi, oshiq bu dunëda ma'shuqasi xijronida o'rtandi, deyilsa, Sultoniy muazzinlar masjidlarda ëqimli, abadiy sadoni aytishdi, dinidan ayrilgan oshiqlar chang chalsa, qolgan oshiqlar ma'shuqasini ëd etib, "ë sanam", deyishdi, degan tasvirni gavdalaniradi.

Umuman, Navoiyning ushbu she'rini Yo.Is'hoqov (1983) yozganidek, "boshidan oxiriga qadar izchil kuzatsak, butun tasvir Quëshning chiqishi, uning avjga etishi (visolga etishish pallasi) va nihoyat botishi (fano, ya'ni yo'q bo'lishi) bilan mutanosib ëkanligiga qanoat hosil qilamiz"(118). Sultoniy g'azalining 5-baytidan Navoiy g'azaliga hamohang tabiat tasviri, tong tasvirini berish yo'nalishini o'zgartiradi, shoir g'azalida o'zining falsafiy-ijtimoiy qarashlarini baën ëtadi. Umrning baqosiz ëkanligini anglab, ishq mayini dildor bilan dam-badam ichishi lozimligi bilan oldingi tasvirdan kelib chiqadigan mazmunni bog'lashga harakat qiladi. Shu o'rinda o'sha davr ijtimoiy-siësiy haëtning shoir ongida aks ëtishi, uning ruhiy holati gavdalanadi. Shuning uchun Sultoniy g'azalning 6-baytida o'z dardi ifodasini beradi. Gul ishqida kuygan oshiq firoqda yig'lab, necha tunganmas alamni boshidan o'tkazishi baën ëtiladi.

## XULOSA

Sultoniy g'azalining maqta'sida shoiming g'amgin ahvoli ul gul vasliga bir soat muyassar bo'lsa, majlis tazib, ër bilan tugunmas visolga ërishish umidi ifodasi bilan g'azal yakunlanadi. Demak, Sultoniy Navoiyning badiiy tasvir vositalari va usullaridan unumli foydalangan holda o'z qarashlari va g'oyasini ifodalash uchun original tashbeh va istioraviy obrazlar yarata olgan. Sultoniy an'anaviy obraz va iboralarga ijodiy yondashgan va o'z davri darajasida ularni orginal talqin qilgani ma'lum bo'ladi. Sultoniy devonidagi o'zbekcha she'rlar turkona uslubga xos sodda, ravon bitilgan. Devonning 90-sahifasida shoirning ikkita muammosi keltirilgan. Birinchisi shunday beriladi:

Yorim ismin so'rasang, ey ozurda jon,

Loladin birni olib qo'y boshig'a, bo'lg'ay ayon.

Ikkinchi muammo:

<sup>11</sup> ديوان سلطانی Qo'lyozma. Inventar raqami: AR –7095. 129 -sahifa.

Boshing'a keldi g'amdin hajringda behad afvoj,

Ey sho'x, sandin o'lmish hadsiz madadg'a muhtoj - ya'ni "Alloh" va "Muhammad" (a.s.)ning nomlariga bitilgan ushbu Sultoniy qalamiga mansub muammolar matni va yechimi "Feruz gulshani" kitobida berilgan<sup>12</sup>. Devonda shoirning bir nechta fors tilidagi she'rlari ham mavjud. Sultoniy she'rlarida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanishida bir xillik, qofiya yoki vaznlarda xatolik, kamchiliklar mavjud. Ammo bunday nuqsonlarning uchrashidan qat'iy nazar o'sha davrda yashab ijod etgan shahzoda shoir devonidagi she'rlar davr adabiy muhiti, devonchiligining aksidir. Umuman, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazmda shakllangan adabiy muhit Alisher Navoiy kabi mumtoz adabiyotimiz vakillarining betakror asarlaridan ilhomlanib, taxmis, tatabbu'lar yaratishdi, ularni o'zlariga ustoz deb bilishdi. Shunig natijasida go'zal tashbehli g'azallar yatarildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ديوان سلطانی Қўлёзма. Инвентар рақами: АР –7095.

Девони Хожа Шамсиддин Муҳаммад Ҳофиз Шерозий. –Техрон, Нашри жумҳурий, 1374/1995. 142-143.

Исҳоқов, Ё. Навоий поэтикаси (Хазойин ул-маоний асосида). Тошкент, "Фан", 1983. 116.

Навоий, А. МАТ. 4-том. Тошкент, "Фан", 1989. 437-438.

Навоий, А. Наводир уш-шабоб. МАТ. 4-том. Тошкент, Фан. 1989. 437-438.

Навоий, А. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб /Ҳ.Сулаймон нашри асосида матнни луғат ва изоҳлар билан қайта нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Тошкент, "Tamaddun", 2011. 609-610.

Навоий, А. Хазойинул маоний. Наводир уш-шабоб. Илмий танқидий текст. Тлшкент, Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1959. 610.

Огаҳий, Муҳаммадризо мироб Эрнийезбек ўғли. Асарлар. I жилд. Девон. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 221.

Файзуллоев, Б. Ўзбек шеърятда татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида): филол.фан.ном.дисс. Тошкент, 2002. 17-18.

Tabibiy, Ahmad. Devon. INV. 678. ЎзФА Шарқшунослик институти. 124а (246)-варақ.

Yusupova, D. (2018) Aruz qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent, "Tamaddun". 195.

<sup>12</sup>Феруз гулшани. 2016. Нашрга тайёрловчилар: Ж.Жўраев, Ж.Жўраев, С.Дўстова. – Т. : "MUMTOZ SO'Z". – Б. 59.